



Gulchexra QOBULNIYOZOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d
E-mail: kabulniazova@yandex.com

TIUE universiteti professori, f.f.d K.Saidova taqrizi asosida

VIEWS ON THE INTUITIVE AND INTELLECTUAL FOUNDATIONS OF CONSCIOUSNESS IN THE PHILOSOPHY OF HENRI BERGSON

Annotation

This article examines the views of the 20th century French philosopher Henri Bergson on the problem of consciousness. Special emphasis is placed on the disclosure of the concepts of intuition and intelligence in the teachings of Henri Bergson.

Key words: "philosophy of life", consciousness, intelligence, intuition, subconscious, spiritual power, time, space, duration, relativity.

ANRI BERGSON FALSAFASIDA ONGNING INTUITIV VA INTELLEKTUAL ASOSLARIGA OID QARASHLAR

Аннотация

Maqolada 20 asr frantsuz faylasufi Anri Bergsonning ong masalasiga doir qarashlari ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor bunda Bergson ta'limotida intuitsiya va intellekt tushunchalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: "hayot falsafasi", ong, intellekt, intuitsiya, ong osti, ruhiy kuch, makon, zamon, davomiylik, nisbiylik.

ВЗГЛЯДЫ НА ИНТУИТИВНЫЕ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ АНРИ БЕРГСОНА

Аннотация

В данной статье рассматриваются взгляды французского философа 20 века Анри Бергсона на проблему сознания. Особый акцент направлен на раскрытие понятий интуиции и интеллекта в учении Анри Бергсона.

Ключевые слова: "философия жизни", сознание, интеллект, интуиция, подсознание, духовная сила, время, пространства, длительность, относительность.

Kirish. Hayot falsafasining buyuk vakili frantsuz faylasufi, intuitiv falsafaning asoschisi – Anri Bergsondir. Uning ijodida inson ongida intellekt, intuitsiya va hayotiy jo'shqinlik kabi ruhiy energiyaning shakllari tahlil qilinadi. Intellektning kelib chiqishi masalasida uchraydigan qiyinchiliklar, A.Bergson fikricha, ongning yuqori shaklini faqat intellekt bilan chegaralashdan kelib chiqadi. Aslida esa intellektdan tashqari ham inson ongida shunday bir kuch borki, u hech qanday intellekt shakliga to'g'ri kelmaydi. Bu kuchning evolyutsiyasi qachonlardir intellektning paydo bo'lishiga olib kelgan. Inson ongidagi bu yashiringan kuch bilan intellekt o'rtasidagi munosabatni Bergson suzishni o'rganish va suzish jarayoni bilan solishtiradi. Quruqliqda suzishni o'rganmoqchi bo'lgan odam hech qachon uni o'rgana olmaydi. Buning uchun u suvga tushib qo'rquvni yengishi va suvni shapillata boshlashi kerak. Inson ongi olamni aks ettiruvchi mexanizm emas, ong buyuk hayotiy bir kuchdir va bu kuchning ko'rinishidan biri intellektdir.

Adabiyotlar sharhi. Bergson falsafasida ongning intuitiv va intellektual asoslari masalasi bilan xorij olimlari V.Diltey, G.Zimmel, M.Xaydegger, K.Yaspers, A.Danto, F.Koplston, G.Skirbekk, N.Gilyelar shug'ullanishgan. Ular intuitiv falsafaning turli tomonlarini o'rganib chiqishgan. Anri Bergson falsafasida ong masalasi bilan N.Smirnov, I.Verixov, I.Blauberg, Yu.Podoroga, V.Vizgin kabi tadqiqotchilar o'rganishgan. Mamlakatimizda mazkur masala bilan Sh.Qahhorova, Q.Shodmonov, M.Mamatov, R.Karimov, G.Ruzmatova kabi faylasuf-olimlar shug'ullanib kelmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot tahlil, sintez, tizimli yondashuv hamda komparativistik tahlil usullariga asoslangan. Komparativistik tahlil usuli alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu usul asosida Bergson qarashlari boshqa olimlar va mutafakkirlarning qarashlari bilan qiyoslangan hamda uning o'ziga xos yondashuvi ochib berilgan. Bundan tashqari, muallif germenevitika metodologiyasiga Bergson asarlaridagi ong, intuitsiya va intellektga oid g'oyalarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish uchun ham murojaat qilgan.

Tahlil va natijalar. Tafakkurning kelib chiqishi masalasida falsafa aniq fanlarning yutuqlaridan foydalanadi va ular asosida o'z dunyoqarashini yaratadi. Lekin bu konkret tabiatshunoslik fanlarining o'zi ham tafakkurning mahsulidir va ular barcha tabiiy jarayonlarni bir-biridan ajratib, muayyan bir mexanik shaklga solib o'rganadi. Bu shakl o'zining uch o'lchamli makoniga egadir. Tafakkur va aniq fanlar moddiy olamning asosida yotgan hayotiy jo'shqinlik kuchini ham aynan shu mexanik qotib qolgan qolipga solishga urinadi. Agar falsafa aniq fanlar nuqtai nazaridan chetga chiqib keta olmasa, u barcha narsalarni harakatga keltiruvchi hayotiy kuchni nima ekanligini bila olmaydi. Harakatning manbai ichki ziddiyatlar yoki umuman o'zgarish, degan fikrga keladi. Aslida bunday fikr tafakkur doirasidan chiqib ketishga imkoniyat bermaydi.

Tafakkurning kelib chiqishi masalasini o'rganish uchun falsafa aniq fanlar doirasidan chiqib ketishi kerak va faylasufning intuitiv his-tuyg'ulari olamiga kirishi lozim. Aniq fanlar asosan inert shaklidagi materiyani o'rganadi. Ularni harakati o'rganish uchun uni tirik narsalardan ajratib, bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakni ayrim xossalarini o'rganadilar. Tirik organizmni yaxlit bir holatda o'rgana olmaydi. Chunki fan tushunchalar va qonunlar tizimidan iboratdir. Har bir tushunchada esa narsaning abstrakt-mavhum qolipi o'rganiladi va bu xossalar formal mantiq qonunlari asosida o'rganiladi.

Abstraktsiyada narsa jarayon sifatida o'rganilmaydi. Abstraktsiyaning mohiyati ham narsalarning xossalarini bir-biridan ajratish va bu ajratilgan narsalarni harakatsiz holatda o'rganishdir. «Tabiatdagi murakkab tirik shakllarning mohiyatini o'rganish uchun aniq fanlar bu harakatchan shakllarni to'xtatishga va tushunchalar qolipiga solishga majburdir. Natijada aniq fanlar tirik olamni mexanik qotib qolgan sur'atini yaratadilar. Bunday mexanik tasavvur orqali esa hayot sirini ochib bo'lmaydi. Shuning uchun harakatchan tirik shakllar hayotiy kuchlarning ichki mohiyatini ochish uchun fan ketidan falsafa keladi» [1].

A.Bergson davomiylik tushunchasini e'tibor markaziga qo'yadi. Bu tushunchada vaqtning bir yo'nalishligi yo'qoladi. Makonning ham uch o'lchamligi nisbiy bo'lib qoladi.

Bergsonning fikricha, makon va vaqt inson tafakkuri doirasida xizmat qiluvchi tushunchalardir. Ular materiyaning davomiylig, energiya holatiga nisbatan olinganda o'z ahamiyatini yo'qotadilar. Vaqt va makon tushunchalari materiyaning faqat ayrim narsalardan iborat bo'lgan shakligagina nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Fan moddiy olamni o'rganar ekan, uni uch o'lchamli makon va o'tmishdan kelajakka yo'naltirilgan vaqt sifatida o'rganadi. Lekin vaqt va makon tushunchalari A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasida o'zining mutlaq ma'nosini yo'qotdi. Ularning nisbiy ekanligi aniqlandi va ular materiyaning inert holatidagina mavjuddir. Lekin materiyaning inert bo'lmagan holatlari ham bordir. Bu holatlarga nisbatan makon va zamon tushunchalari o'z ahamiyatini yo'qotadi. A.Bergson I.Kantning aprioristik falsafasini tahlil qilar ekan, uning antinomiyalari to'g'risida qiziqarli bir xulosaga keladi. A.Bergson fikricha, Kant ruhiy jarayonni intellektual jarayon bilan birlashtirib qo'ygan. Aslida ruhiyat, ruhiy jarayonlar intellekt doirasidan chiqib ketib, butunlay boshqa o'lchamga, boshqa qadriyatlarga asoslangan, boshqa falsafiy dunyoqarashga olib keladi. Bu falsafiy dunyoqarash fan metodologiyasiga asoslanmaydi, uning chegaralari doirasidan chiqib ketadi va ko'proq psixologik holatlar dunyosiga o'tadi. Bunday yangi falsafaning asosida insonning ichki dunyosidagi psixik kechinmalarni o'rganish yotadi.

Tafakkurdagi zamon va makon tushunchalarining nisbiy ekanligini tushuntirish uchun Bergson Plotin ta'limotiga murojaat qiladi. Plotin ta'limotida ko'lam, o'lcham, davomiylig ruhiy mavjudlikning muayyan bir shakldir [2]. Bu muayyan shakl ortida inson tafakkuri o'z tasavvuriga sig'dira olmaydigan ruhiy borliq yotadi. Makon va zamon haqidagi nisbiy tushunchalarimiz bizning qarashlarimizga moslashgan tafakkurning o'zi yaratgan shakllardir. Masalan, geometriya fanidagi makonga tegishli bo'lgan har xil ko'lam, o'lcham tushunchalari va qonuniyatlari tasavvurimizdagi shakllardan kelib chiqadi. Hayvonlar bunday tushunchalarga ega bo'lmalar ham o'zini makon va zamonda hissiyotlari orqali adashmasdan harakat qilishga moslashganlar.

Demak, geometriya fanidagi induksiya va deduksiya usullari aslida tafakkurimizni moddiy olamga moslashish shakllardir. A.Bergsonning fikricha, fandagi barcha ilmiy nazariyalar ham o'zgaradi. Demak, olam va u haqdagi inson tasavvurlari qotib qolgan borliq va uni aks ettiradigan qotib qoluvchi suratlar emas. Borliq o'zgaruvchan, insonning borlig'i ham bu borliqning bir qismi bo'lib, unga qarab moslashib boradi. Bu moslashuvimiz tasavvurimizda har xil tushunchalar va qonunlar orqali ifoda etiladi.

A.Bergson fikricha, «tartib sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi kelishuv natijasida paydo bo'ladi» [3]. Bu tartib va kelishuv asosida narsalarning ichida mavjud bo'lgan ruhning faoliyati yotadi. Agar ruh narsalar ichida erkin faoliyat ko'rsatsa, u hayotiy jo'shqinlik, hayotiy tajribaga aylanadi. Bu tajribada sub'ekt va ob'ekt birlashib ketgan va bu birlikning asosida ruhiy jarayon yotadi. Birinchidan, bu jarayonning qanday kechishini oldindan bilib bo'lmaydi. U ruhning quvvatiga bog'liq bo'lib, har xil sharoitda har xil oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, narsalarda mavjud bo'lgan ruhning harakati orqaga qayrilib o'z-o'zini aks ettirishi mumkin. Shunda faoliyatdagi ob'ekt sub'ektdan ajraladi va ruhiy jarayonning sekinlashishiga olib keladi. Buning natijasida mexanik qonunlarga asoslangan tafakkur shakllari paydo bo'ladi. Bu holatda inson ongi o'zining ruhiy quvvatini yo'qotadi, faoliyatdan ajralib qoladi va ob'ektni aks ettiruvchi sub'ektga aylanib qoladi. Shunday qilib, Bergsonning fikricha, ruhiy faoliyatning ikki shakli mavjud. Birinchisi, hayotiy jo'shqinlikka asoslangan hayotiy tajriba shaklidir. Ikkinchisi esa mexanistik tarzda aks ettirishga asoslangan nazariy ong shaklidir. Nazariy ong yoki tafakkur shaklida hayotiy jo'shqinlik so'nadi va ruhiy jarayon o'z quvvatini yo'qotadi. Yagona borliqda sub'ekt va ob'ektga ajraladi. Tafakkur nuqtai nazaridan sub'ekt ob'ektni aks ettirishi kerak. Bu aks ettirishning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini biz tajriba orqali tekshiramiz. Lekin Bergson tafakkurdagi nazariyalarni tajriba orqali tekshirib bo'lmaydi, deb

hisoblaydi. Negaki, tajriba sub'ekt va ob'ektning birlashishidir, deydi u [4].

Qadim o'tmishdagi tafakkur holatidan hozirgi zamondagi tafakkur holatining asosiy farqi, A.Bergsonga ko'ra, insonning ehtiyojlaridan kelib chiqishidir. Bu ehtiyojlar Arastu fizikasida olamni turlarga va individlarga bo'linishiga olib kelgan. Moddiy olamning asosida zaruriy qonuniyatlar emas, balki turlarning muayyan tizimi yotgan va bu turlar o'rtasidagi munosabatlar Arastu tomonidan o'ziga xos tushunchalar orqali ifoda etilgan. Masalan, toshning yerga tushish jarayonini Arastu bu turdagi narsaning asl holatiga qaytishga intilishi, deb hisoblagan. G.Galileyning fizikasida esa toshning yerga tushishi holati yerning tortishish qonuni orqali tushuntiriladi. Demak, Arastu fikriga binoan tafakkurning markazida turlarning o'zaro birligi va yaxlitligi yotadi, Galileyning fizikasida esa dunyoning asosida tortishish kuchlari qonuniyati yotadi. A.Bergsonning ta'kidlashicha, aslida Arastu fizikasidagi tushunchalar ham, Galileyning fizikasidagi tushunchalar ham olamni insonning ongidan tashqarida mavjud ekanligini aks ettirmaydilar. Aksincha, ular moddiy olam va inson ongini birligini, bir-biriga moslashganligini ochib beruvchi, kelishilgan holatdagi tushunchalardir.

A.Bergson «Ijodiy evolyutsiya» asarida tartibni ikki ko'rinishga bo'ladi. Birinchi ko'rinishdagi tartib moddiy olamdagi narsalar o'zaro aloqadorligidan iborat. Bu tartibni tafakkurdagi tushunchalar mexanik ravishda aks ettiradi. Bu tartibda ijodkorlik kuch-quvvati yo'q, u faqat narsalarni makon va zamonda o'zaro joylashuvini kuzatadi. Ikkinchi turdagi tartib esa narsalar ichidagi hayotiy jo'shqinlikni o'zaro tajalli etishini ko'rsatadi. Buni tushuntirish uchun A.Bergson hayvonot va o'simliklar turlarini misol qilib keltiradi. Masalan, bir turdagi hayvonlar yer sharining har xil joylarida o'zlaridagi moslashish qobiliyatini har xil ifoda etadilar. Yevropadagi asalarilar Yaponiyadagi asalarilardan birmuncha farq qiladi. Vaholanki, ularning turi bir, lekin ulardagi hayotiy jo'shqinlik kuchi, yashash shart-sharoitlariga qarab butunlay har xil harakatlarga olib keladi. Masalan, Yaponiyaning Nagano viloyatida tarqalgan asalarilar bu viloyatdagi qovoqarilarga qarshi kurash shakllarini juda yaxshi biladilar. Bu viloyatga Yevropadan olib kelingan asalarilar asalni nihoyatda katta miqdorda bersalar ham, qovoqarilar hujumi oldida kuchsizdir. Yevropada esa bu asalarilar boshqa hasharotlardan o'zini yaxshi himoya qiladilar. Bergsonni fikri shunday ediki, bir turdagi hayvonlar, o'simliklar har xil sharoitda o'zining xilma-xil qobiliyatlarini yuzaga chiqarishadi. Bu qobiliyatlarni yuzaga keltiruvchi kuch moddiy olamdagi barcha narsalarga xos bo'lgan hayotiy jo'shqinlik kuchidir. Bu hayotiy jo'shqinlik kuchini hayvonot olamida instinkt deb atashadi.

Tartib tushunchasi tafakkur nuqtai nazarida narsalarni makon va zamonda joylashuvi bilan bog'liqdir. Bunday tartib, Bergsonning fikricha, mexanik tartibdir. Narsalarni joylashuvi insonning faoliyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Faoliyatdan kelib chiqadigan tartib ularni makon va zamondagi joylashuviga qarab befarq bo'lib qoladi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, narsalar makonda betartib joylashgandek ko'rinadi. Lekin aslida narsalarning bunday joylashishi ularning inson faoliyatida egallagan o'rniga bog'liqdir. Shunday qilib, ob'ektiv reallikning o'zi bir paytda tartib va tartibsizlikni o'zida mujassam qiladi. Tafakkur nuqtai nazaridan tartibsiz tasodifiy ko'ringan narsalarning o'ziga xos yashiringan tartibi va betakror izchilligi bordir. Har xil nuqtai nazardan qaraganda bir narsaning o'zi bir paytning o'zida ham tasodifiy, ham zaruriy, ham tartibli, ham tartibsiz bo'lishi mumkin. Bizning aqlimiz bu tartib va tartibsizlikni, zarurat va tasodifiy bir-biridan sun'iy ravishda ajratadi va bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatlar deb e'lon qiladi. Aslida esa bu ziddiyatlar hayotiy jo'shqinlik kuchini tarkibidagi xilma-xillik va rang-baranglikni tashkil qiladi. Tafakkur esa mexanik tartibga tushirishga harakat qiladi va xilma-xil bo'lgan jarayonlarni sun'iy ravishda ikki qutbga, ikki xil ziddiyatlarga ajratadi. Bu ikki xil ziddiyatlar ichida rang-barang olam o'z ranglarini yo'qotib, faqat ikki rang – oq va qoraga ajratadi. Mana shu ikki xil ziddiyat o'rtasidagi munosabatlarni tafakkur dialektika nuqtai nazaridan rivojlanishning asosiy sababi, deb

hisoblaydi. Bergsonning fikricha, «olamda rivojlanish emas, balki hayotiy jo'shqinlik kuchi avj uradi. Olam limmo-lim ranglar va jilolarga to'ladi» [5: 200]. Bu hayotiy jo'shqinlikning zaminida ruhiy kuch-qudrat, ruhiy energiya yotadi. Bu ruhiy energiyani tafakkur ilg'ab olishga va tushunchalar orqali ifoda etishga harakat qiladi. Tafakkurning bunday harakatlari natijasida falsafaning dialektika usuli qadimdan vujudga kelgan. Dialektik uslub hayotiy jo'shqinlikdagi rang-baranglikni bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatlarga bo'ladi. Bu ziddiyatlarni esa abstrakt tushunchalar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Bergsonning fikricha, «dialektika tafakkurning sun'iy ravishda yaratilgan uslubidir. U hayotiy jarayonlarni to'la qamrovli holatda o'z ichiga olmaydi» [5].

Falsafa tarixida hayotiy, ruhiy jarayonlarni xilma-xil nuqtai nazardan o'rgangan sistemalar bo'lgan. Ular intuitiv uslubni mavjud ekanligini ta'kidlashgan. Intuitsiya hayotiy jo'shqinlik kuchini his qilishga qodir va har qanday dialektika uslublaridan yuqorida turadi. Dialektika tafakkurning mahsuli bo'lsa, intuitsiya oliy ongning mahsulidir. Intuitsiya faylasufning ichki ruhiy holati sifatida barcha falsafiy sistemalarning u yoki bu qarashlarida mavjud bo'ladi. Agar falsafa tarixiga nazar tashlasak, intuitsiya elementlarini deyarli barcha falsafiy oqim, maktab va sistemalarda ko'rishimiz mumkin. Lekin bu oqim va maktablarda intuitsiya yagona yaxlit zaminni tashkil etmagan. Buni ifoda etish uchun Bergson quyidagi so'zlarni keltiradi: «Falsafiy dunyoqarash intuitsiya zaminida bo'lganida ruhdan tashlasak, tabiatdan esa ruhga doimo o'ta olganida moddiy va ruhiy jarayonlarni bir-biridan ajratmaganda, o'zining oliy maqsadiga erishgan bo'lar edi» [1].

A. Bergson fandagi energiya haqidagi tasavvurlarni ruhiy jarayon tushunchalari bilan solishtirib ko'radi. «Koinotga nazar tashlasak, – deb yozadi Bergson, – u son-sanoqsiz bizning quyosh sistemamizga o'xshash sistemalardan iboratligiga amin bo'lamiz. Ularning bir-biriga ta'siri deyarli kuchli emas. Shuning uchun biz quyosh sistemasi doirasidagi energiya, ya'ni kuch-quvvat harakatlarini e'tiborga olishimiz kerak» [5]. Fizika fanida energiyani saqlanishi qonuni fundamental qonunlardan biri hisoblanadi. Bu qonunga binoan bizning quyosh sistemamizdagi energiya jarayonlari o'z-o'zidan kamaymaydi ham, ko'paymaydi ham. Lekin termodinamikaning ikkinchi qonuni ham mavjuddir. Bu qonun termodinamikaning ikkinchi printsipi deb ataladi va unga binoan energiyani barcha turlari issiqlikka aylanadi. U esa, o'z navbatida, barcha yerga bir maromda tarqalishga harakat qiladi. Cheksiz koinotda issiqlikning tarkalishi uning kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, boshida nihoyatda kuchli va katta hajmda bo'lgan energiya jarayoni asta-sekin sekinlashadi, issiqlik kamayib borib, yo'qolish darajasigacha keladi.

Bir qator muammolar energiyani saqlanish qonunini asoslab berish uchun cheksiz koinotdagi yuldoz sistemalar bir-biriga doimo ta'sir qiladi va bu ta'sir zaminida energiyani almashinuvi yotadi, deb hisoblaydilar. Bunday dalillarni e'tiborga olish materiyani abstrakt makon tushunchasi bilan bog'lashga olib keladi. Bunday mexanik tushuncha esa hozirgi fan tomonidan dalillar asosida tasdiqlanmagan. Sinergetika fanining dalillariga binoan energiyani ko'payishiga olib keladigan rivojlanish jarayonlari faqat ayrim sistemalargagina xos, ular esa o'z navbatida asosiy yo'nalishni tashkil etmaydi. Issiqlik energiyasining kamayib borish jarayoni fizika fani doiralarda jumboqqa olib keladi. Bu jumboqni yechish uchun uch o'lchamli makon va zamon tasavvuriga asoslangan fizika doirasida chiqib ketish lozim. Hayotiy jo'shqinlik kuchlari termodinamikaning ikkinchi qonunini inkor etmaydi, lekin materiyani barcha shakllarida bu qonunga xilof ravishda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'simliklardagi xlorofilning yuzaga kelishi jarayoni kosmik quyosh energiyasini o'simlikning hayotiy kuchiga aylanishi va energiyani issiqlik shaklidan biologik shakliga o'tishdir [6]. Demak, tirik organizmlar hayotida energiyani kamayishi qonuniga xilof ravishda energiyani butunlay boshqa shaklga o'tish hollari kuzatiladi. Hayotiy jo'shqinlik kuchi materiyadagi inert harakatni yengib, uni materiyani biorganik darajaga, ko'taradi. Bu esa, o'z navbatida, hayotiy jo'shqinlik kuchlariga yaratuvchilik va ijodkorlik xos ekanligini isbotlaydi [7].

Koinotda qaror topgan hayotiy jo'shqinlik kuchini Anri Bergson quyidagi timsollar orqali ifoda etadi [1]. Bu jarayon hech qanday tartib-qoidaga bo'ysunmaydi, unda ruhiy kuchning erkinligi jo'sh uradi. Hayot, energiya, ruhiy jo'shqinlik, ijodkorlik, erkinlik – bularning barchasi markazdan kelib chiqadigan kuchlardir [8]. Agar bu markaz bo'lmaganida koinotdagi energiyani barcha shakllari issiqlikka aylanib, asta-sekin sovib, oxir-oqibat yo'q bo'lar edi. Fizika, mexanika fanlari doirasida materiyani faqat noorganik shakllari o'rganiladi. Bularda esa hayotiy kuch sekinlashib qolgan. U shakl qolbiga tushib uch o'lchamli makon va zamonda mavjuddir.

Xulosa. Hayotiy jo'shqinlik va ijodkorlik kuchini tirik jonzoatlarning organik hayoti zaminida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Organik hayotning noorganik hayot shakllaridan kelib chiqishini Bergson inkor etadi. Organik va noorganik hayot qachonlardir yagona bo'lgan energiya oqimining ikki yo'nalishidir. Ular bir-biridan kelib chiqmaydi. Organik hayotning sirini o'rganish uchun Bergson neyrofiziologik jarayonlarga e'tibor qaratadi. Bu jarayonlarning barchasi tirik jonzoatlarning harakatini boshqaradi. Tirik organizmlar harakat orqali energiyani yo'qotadilar va shu bilan bir qatorda energiyani ham oladi.

ADABIYOTLAR

1. Бергсон А. Творческая эволюция. – Москва: Канон-Пресс, 1998. – С.178, 214, 220.
2. Skirbekk, G., Gilye, N. Falsafa tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002.
3. Бергсон А. Материя и память. – Москва: Мысль, 1998. – С.146,
4. Бергсон А. Длительность и одновременность. – Санкт-Петербург: Academia, 1923. – С.158.
5. Бергсон А. Избранное: Сознание и жизнь. – Москва: РОССПЭН, 2010. – С.244, 399.
6. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Ruzmatova G., Qobulniyozova G. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar). – Toshkent: Sharq, 2002. – B.110.
7. Кабулниязова Г.Т. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ) // Вопросы философии. – 2022. – Т. № 12. – С.159–167. DOI: 10.21146/0042-8744-2022-12-159-167.
8. Karimov R., Bekbaev R. The Traditionalism of Rene Guenon in the Discourse of Philosophy of History and Social Anthropology // Wisdom. – 2022. – №1(21). – P.194-202. DOI: 10.24234/wisdom.v21i1.712.